

**JAHON MUSAVVIRLARI IJODIDA IMPERIYA (AMPIR) USLUBINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI (JAK LUI DAVID VA JAN OGYUST DOMINIK ENGR IJODI
MISOLIDA)**

Parpiboyev Islomjon Ilhomjon o'g'li

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Mahobatli rangtasvir mutaxassisligi 1-kurs magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14585050>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon tasviriy san'atining yetuk namoyondalari bo'lmish usta rassomlar Jak Lui David hamda Jan Ogyust Dominik Engrlarning ijodi yo'li, asarlarining estetik mohiyati, shuningdek ularning ijod uslubidagi o'xshashlik va faqlari haqida ochib berishga harakat qildindi.

Kalit so'zlar: Jahon tasviriy san'ati, Jak Lui David, Jan Ogyust Dominik Engr, badiiy ijodiy jarayon.

**ОСОБЕННОСТИ СТИЛЯ ИМПЕРИЯ (АМПИР) В ТВОРЧЕСТВЕ МИРОВЫХ
ХУДОЖНИКОВ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ЖАКА ЛУИ ДАВИДА И ЖАНА
ОГЮСТА ДОМИНИКА ЭНГРА)**

Аннотация. В данной статье была предпринята попытка раскрыть путь творчества мастеров-живописцев Жака-Луи Давида и Жана-Огюста Доминика Энгра, являющихся зрелыми представителями мирового изобразительного искусства, эстетическую сущность их произведений, а также сходства и различия в их творческом стиле.

Ключевые слова: Мировое изобразительное искусство, Жак Луи Давид, Жан Огюст Доминик Энгр, художественный творческий процесс.

**DISTINCTIVE FEATURES OF THE EMPIRE STYLE IN THE WORKS OF WORLD
ARTISTS (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF JACQUES LOUIS DAVID AND
JEAN AUGUSTE DOMINIQUE INGRES)**

Abstract. This article attempts to reveal the creative path of master artists Jacques Louis David and Jean Auguste Dominique Ingres, who are outstanding representatives of world fine art, the aesthetic essence of their works, as well as the similarities and differences in their creative styles.

Keywords: World Fine Arts, Jacques Louis David, Jean Auguste Dominique Ingres, artistic creative process.

XVIII-XIX asrlarda jahon rangtasvirining rivojlanish jarayoni murakkablashib boradi, o'z an'analari va xususiyatlariga ega bo'lgan milliy maktablar vujudga keldi. Rangtasvirda psixologik muammolar chuqurlashib ketadi huningdek, insonni o'rab turgan atrof-muhit, kundalik hayotga va real voqea - xodisalarga murojat qilish rangtasvirda ham janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Bu janrlar manzara, natyurmort, portret, maishiy janr va xakozolar edi. San'atda turli stildagi yo'nalishlar yaratildi. Bu asrlarda jahon san'atida diniy-mifologik obrazlar qadrlandi, ayrim ustalar psixologik jihatdan ampir stilidagi asarlar yaratdilar.

Shuningdek, Fransiya rangtasvirida ham ampir usuli vujuga kelib shakllanib boshladi.

Ampir uslubi neoklassik uslub sifatida ham tanilgan bo'lib XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida paydo bo'lgan me'morchilik, dizayn va dekorativ san'atning asosiy shakli hisoblandi.

Imperiya uslubining nomi Napoleon Bonapart davridagi birinchi Fransiya imperiyasidan olingan.

O'zining ulug'vorligi, nafisligi va hashamdorligi bilan ajralib turadigan imperiya uslubi qadimgi Yunoniston va Rim me'morchiligidan, shuningdek, Misr va boshqa klassik sivilizatsiyalardan ilhom olgan holda shakllandi.

U nosimmetrik dizaynlarni, toza chiziqlar va monumental nisbatlarni o'zlashtirib, kuch va hokimiyat tuyg'usini uyg'otadi. Marmar, bronza va zarhal kabi materiallardan foydalanish uslubning hashamatiga yanada joziba qo'shadi. Unda Napoleon harbiy diktaturasiga suyanagan burjua doiralarining g'oyalari va estetik qarashlari ifoda ettirilgan.

Fransiyada Jak Lui David hamda Jan Ogyust Dominik Engr kabi rassomlar ijodida ham Ampir uslubi o'z ifodasini topgan.

Mavzuni yoritish maqsadida mazkur rassomlarning ijodiy uslubi, bir biridan farqini ko'rib chiqishimiz lozim.

Jak Lui David frantsuz yetuk rassomlaridan hioblanib, neoklassitsizmning taniqli vakili. U Baucher bilan tahsil olib, rokoko uslubida ishlay boshladi, lekin Rimda (1775-1780) ta'lim olganidan so'ng Qadimgi Rim san'ati ta'sirida David qat'iy epik uslubni shakllantirdi. 1783 yilda, 35 yoshida, David Frantsiya Rassomlik akademiyasining a'zosi etib saylandi va bir yil o'tgach, u Parij ko'rgazmasida keng jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'ldi. Tomoshabinlar bilan ajoyib muvaffaqiyat qozongan 35 yoshli usta Lui XVI saroy rassomiga aylanadi, O'zini rokoko uslubida qadimiylar tasvirlari orqali qahramonona erkinlikni sevuvchi g'oyalarni ifoda etishga intildi, bu esa o'sha davr jamoatchiligining kayfiyatiga juda mos keldi. U fuqarolik burchga sadoqat, qahramonlik, fidoyilik qobiliyatini tarannum etuvchi asarlar yaratdi.

1804 yilda Napoleon Jak Lui Davidni "birinchi rassom" etib tayinladi. David Napoleonning qahramonliklarini bir qator asarlarida ulug'lagan, bu Davidning qat'iy klassitsizmdan romantizmga o'tganligini ko'rsatadi.



Bunga bir qancha asarlarini misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin. Uning "Goratiyevlar qasamyodi" asari, "Rimliklar va Sabinyanlar o'rtasidagi jangni to'xtatgan Sabinyan ayollari" va "Sokratning o'limi" kabi asarlar bunga misol bo'la oladi.

"Goratiyevlar qasamyodi" asari haqida gapiradigan bo'lsak, unda uch aka-uka g'alaba qozonishga yoki o'lishga qasamyod qilishadi va otalari ularga qilich berayotgani tavrirlangan. David bu asarni Lyudovik XVI tomonidan berilgan buyurtma asosida ishlaydi.

"Rimliklar va Sabinyanlar o'rtasidagi jangni to'xtatgan Sabinyan ayollari" asarida Rimliklar va Sabinyanlar o'rtasidagi jang tasvirlangan.

Sabinyan ayollari jangni tugatishga umid qilib, bolalarini jang maydoniga olib kelishadi.



“Sokratning o’imi” nomli ushbu asarda sud hukmiga ko’ra zaharli kosani ichishga tayyor bo’lgan Sokrat o’z shogirdlariga xayrlashuv so’zlari bilan murojaat qiladi. Faylasuf qo’lini ko’tarib, ikkinchisini piyola tomon uzatdi. Uning qo’li halokatli ichimlik solingan idishga tegmoqchi bo’lib, ammo hali ham tegmay havoda osilib turishi muhim ahamiyatga ega, chunki u vaqt to’xtab qolgandek taassurot qoldiradi.

Jak Lui Davidning shogirti bo’lmish Jan Ogyust Dominik Engr ham o’zining unutilmas ijoiy aarlari bilan tarixda iz qoldirgan. Jan Ogyust Dominik Engr frantsuz rassomi Parijda Jak Lui Daviddan ta’lim olgan. Engr adabiy, mifologik, tarixiy mavzularda kartinalar yozgan. U o’zini tarixiy rassom va Jak Lui Davidning izdoshi deb hisoblagan. Biroq, o’zining mifologik va tarixiy kompozitsiyalarida Engr utozining talablaridan chetga chiqib, tabiat, diniy tuyg’ularni iffodalashda ko’proq jonli kuzatishlar olib bordi, mavzuni kengaytirdi, xususan, asarlarida romantiklar singari antik davr va o’rta asrlarga murojaat qildi. Engrning o’zi portret janrini o’zining darajasiga loyiq deb hisoblamagan, garchi u portret sohasida o’zining eng muhim asarlarini yaratgan bo’lsa ham.

Uning asarlarida bir qator go’zal ayollar obrazlarini tavirlash orqali abadiy go’zallik idealini tasvirlab berishga intilganini ko’rishimiz mumkin.

Jan Ogyust Dominik Engr o’zining usslubi haqida quyidagi so’zlarni aytgan edi: "Mening asarlarimda men faqat bitta uslubga amal qilaman - antik davr va o'sha mashhur asrning buyuk ustasi Rafael san'atda go'zallikning abadiy va o'zgarmas chegaralarini o'rnatdi". "Men asosan



uning go’zal tamoyillariga sodiq qolgan bo’lsam-da, antik davrga bo’lgan muhabbatiga tirik modelning ta’mini qo’shib, italiyalik ustalarni, xususan Rafaelni o’rganish orqali yangi yo’l topdim deb o’ylayman". Uning bu so’zlari “Yupiter va Tetis”, “Rafael va Fornarina”, “Katta Odaliska” kabi asarlarida o’z isbotini topadi.

“Yupiter va Tetis” asari rassom hali 31 yoshida chizilgan bo’lib, bu asar bulutlarda tug’ilgan Olimpiya mabudining ulug’vorligi va qudratini miniatyura va yarim yalang’och nimfa bilan keskin va qat’iy ravishda aks ettiradi. Engrning bu asarining syujeti Gomerning "Iliada" epizodidan olingan bo’lib, unda dengiz nimfasi Tetis Yupiterga yolvorib, o’sha paytda Troya jangi ishtirokchisi bo’lgan o’g’li Axillesning taqdirini yaxshilashni so’rayotgan jarayoni tavrirlangan.

“Rafael va Fornarina” asarida rassomning kumiri Rafaelning sevimli Fornarina bilan birgalikdagi portreti tasvirlangan.

Dastgohda Engr tugallanmagan "Fornarina" rasmini va fonda "Madonna della Sedia" tondosini ko’rsatgan. Xuddi shu model Rafael uchun moellik qilgan.





Haramdagi qullar va xizmatchilar odalislar deb atalgan. “Katta Odaliska” aarida Engr Uyg'onish davri rassomlaridan o'rnak olib, anatomik o'xshashlikka amal qilmagan.

Aarning badiiy maqsadlariga kelsak u o'ng qo'lni uzaytirdi va chap oyog'ini anatomik nuqtai nazardan imkonsiz bo'lgan burchak ostida bukdi. Rasmdagi libossiz qiz g'ayrioddiy tarzda taqdim etilgan – ochiqlik va qo'pollikdan mahrum bo'lgan holda alohida mukammallik doirasiga ko'tarilgan. Asar rassom tomonidan Napoleonning singlisi Karolin Murat buyurtmai asosida chizilgan. Bu asar bugungi kunda Luvr muzeyida saqlanib kelinmoqda.

Biz yuqoriagi rassomlar ijodini o'rganib tahlil etar ekanmiz ularning ustoz shogird ekanini va ijodiy uslubini qanchalik o'xshash bo'lishiga qaramay Engrni asarlarida asosan Rafaelni uslubi akslanishini guvohi bo'ldik. Ularning har ikkalasi ham o'z davrining usta rassomlari bo'lib, jahon tasviriy san'atida unutilmas iz qoldirgan.

REFERENCES

1. Абдирасилов С.Ф., Бойметов Б.Б., Толипов Н.Х. Тасвирий санъат.—Т.: 2010 35 б
2. Березина, В. Энгр. — М.: Изобразительное искусство, 1977. — 232 с.
3. Бодлер, Шарль. Об искусстве / Пер. с фр. Пред. В. Левица, посл. В. Мильчиной. — М.: Искусство, 1986. — 422 с.
4. Энгр об искусстве / Сост., авт. вступ. ст. и комм. А. Н. Изергина. — М.: Изд. Академии художеств СССР, 1962. — 172 с.
5. Zarifova Dilfuza Omon qizi., “Ranglarning fazoviy birikmalari va xususiyatlari”. Educational Research in Universal Sciences. T.: 2023.